



UILYAM BLEYKNING “MA`SUMLIK QO`SHIQLARI” VA “TAJRIBA QO`SHIQLARI” ASARLARIDAGI RAMZIY OBRAZLARINING POETIK IFODASI

Muallif: Mannonova Feruzabonu Sherali qizi ¹

Affiliyatsiya: katta o`qituvchi, Ingliz tili 3-fakulteti, O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15201941>

ANNOTATSIYA

Uilyam Bleyk g`arb mistik adabiyotining eng yorqin namoyondalaridan biri bo`lib, uning ijodini o`rganish hali hamon davom etmoqda. Sharqda tasavvuf adabiyoti aynan shu ramziylik va ilohiylik aspekti boyligi bilan ajralib turganidek, G`arb mistik adabiyoti ham o`zining ma`naviy – axloqiy va ayniqsa, inosniylik g`oyalari bilan to`lib toshkani bilan alohida o`rin tutadi. Quyidagi ilmiy maqola ham shunday ilmiy izlanishlar natijalaridan biri bo`lib, unda shoirning “Ma`sumlik va Tajriba qo`shiqlari” asaridagi mistik obrazlarning ramziylik aspekti o`rganiladi. Shuningdek, maqola ramziy obrazlar she`riy parchalarda misolida tahlil etilib, ularning genesizi va ma`naviy g`oyaviyligi ovhib beriladi.

**Kalit so`zlar:** tafakkur, gumanizm, mistik adabiyot, ramz, ruhiyat, ilohiy ishq, beg`uborlik

KIRISH

“Ma`sumlik qo`shiqlari” Uilyam Bleyk ijodining cho`qqisidir. Keyinchalik asarning davomi va mazmuniy to`ldiruvchi qismi sifatida “Tajriba qo`shiqlari” birga nashr qilina boshlandi. Chunki har ikki to`plamdagi obrazlar bir birini taqozo etadi. “Ma`sumlik qo`shiqlari” da quyida 6ta yirik she`rlar mavjud: Ona qo`shig`i (*Introduction*), “Qo`zichoq” (*The Lamb*), Tashlandiq bola (*The Little Black Boy*), Enaga qo`shig`i (*The Nurse's Song*), Mo`ri tozalovchi bola (*The Chimney Sweeper*), Bola (*Infant Joy*). “Tajriba qo`shiqlari” esa Yo`lbars (*The Tyger*), Xasta Atirgul (*The Sick Rose*), Qorong`ulik (*London*), Bozordagi bola (Tajriba) (*The Chimney Sweeper*), Qari enaga (Tajriba) (*The Nurse's Song*), Bola (*Infant Sorrow*) she`rlarini o`z ichiga oladi. «Ma`sumlik qo`shiqlari» an'anaviy diniy syujet asosidagi oddiy she`rlar shaklida bo'lsada, undagi gumanizm mag'zini real dunyodagi insonlar hayoti tashkil etadi. Bleyk asarda insoniyat tarixining turli davrlarida yashagan kishilarning murakkab falsafiy qarashlariga munosabatini bildiradi [2].

“Ma`sumlik qoshiqlari” va “Tajriba qo`shiqlari” 2ta qismdan iborat to`liq bir to`plam bo`lib, unda jahonning buyuk donishmandlari va tarixiy shaxslari Iso Masih, Jon Lok, Isak Nyuton, John Milton tilga olinagan. Asar badiiy yuksak bo'lishi bilan birga, kishilik jamiyati taraqqiyotida yig'ilgan bilimlarning boy xazinasidir. Bir qarashda anglanishi oddiy she`rlar bo'lgani bilan aslida asardagi ramziy o`zining yuksak cho`qqisiga chiqadi va shubhasiz asar Sharq va G'arb tafakkuri va falsafasi mevalarini omuxta etgan deya olamiz. Dante asarlari jahon xalqlarining ko'pgina tillariga tarjima

qilingan. "Ma`sumlik qo`shlari" 2019 yilda shoir va tarjimon Muhammad Ali tomonida o`zbekchaga tarjima qilingan.

Asarning muqaddima qismi asardagi ilk ramziy obraz - bola obrazi bilan boshlanadi.

*Yovvoyi vodiylar bo'ylab nay chalib,
Xushnud kuylarni yangratib,
Bulut uzra bir bolani ko'rdim,
Kulib menga shunday dedi:
"Nay chal, Qo'zichoq haqida!"
Men quvonch bilan chalib berdim.
"Naychi, yana chal o'sha kuy,"
Men chaldim, u esa yig'ladi.*

Shoir "bola"ni bulut uzra yuksaklikdagi shaxs sifatida tavsiflar ekan, uni avval bulut uzra turib, qo`zichoq haqida nay chalishini so`raydi. Bunda, bola farishta, qo`zichoq esa Iso timsollarini yashirib keladi. She`r songida bolaning yig`lashi lsoni deb xatto falak ham yig`laganini tasvirlaydi. Bola obrazi butun to`plamda bir necha marta takrorlanadi, amma barchasi bir xil ma`no bermaydi. Masalan, **"The Little Black Boy"** (Kichkina qora bola) she`ri irq, ruhiy ma`naviyat va ilohiy muhabbat mavzularini o`z ichiga olgan. Unda bola o`zining tashqi qiyofasi bilan ichki dunyosi o`rtasidagi tafovutni anglaydi va oq va qora tanli insonlarning ruhiy tengligi haqida mulohaza yuritadi. She`rdagi **Qora bola – irqiy adolatsizlik va ijtimoiy ajratish bilan kurashayotgan insonlarning ramzi**. "The Chimney Sweeper" (Mo`ri tozalovchi bola) she`rida bola obrazi orqali shunchalik katta ma`no va mazmun ifodalangan ediki, O`rta asrlar Angliyasidagi butun bolalar, ayniqsa kambag`al oilalar bolalarining taqdiri va qismatini ochib bergan achinarli obrazlardan biridir [5]. Ushbu she`rga hech bir o`quvchi shunchaki ko`z yugirtira olmaydi. Bleykning mahorati ham aynan shu kabi obrazlardan ustalik bilan foydalanganida namoyon bo`ladi. Uning holati **bolalar ekspluatatsiyasining timsoli** bo`lib, Angliyadagi sanoat davri bolalar mehnatini fosh qiladi.

*The night was dark, no father was there;
The child was wet with dew;
The mire was deep, & the child did weep,
And away the vapour flew.*

tarjimasi:

*Tun qorong'i edi, ota yo'q edi;
Bola shudringdan ho'l bo'lib ketgan edi;
Botqoq chuqur edi, va bola yig'lardi,
Va bug' havoga uchib ketdi.*

She`rning tub mohiyati shundan iboratki, **qiyinchilik va zulmga duchor bo'lgan begunoh bolalar umid va e'tiqod orqali o'zlariga tasalli berishadi, lekin aslida bu passiv itoat ijtimoiy zulmni davom ettirishga xizmat qiladi.**

Asardagi keyin o`rinda uchragan ammo eng birlamchi o`rindagi va eng uchraydigan obraz bu qo`zichoq obrazidir. "Ma`sumlik qo`shlari"dagi e`tibor markazidagi she`r va undagi asosiy obraz bo`lgan qo`zi obraziga to`xtalsak, butun to`plamda ushbu obraz 19 marta uchraydi va qo`zichoq she`rlarda asosan bir xil

ma`noda uchraydi. Avvalambor, "Qo`zi" she`rining o`zida beg'uborlik, mehribonlik hamda ilohiy yaratuvchining inoyatini aks ettiradi.

For he hears the lamb's innocent call,

And he hears the ewe's tender reply;

tarjimasi:

Chunki u eshitar qo'zining beg'ubor nolalarini,

Va tinglar u ona qo'yning mayin javobini.

Asardagi qo`zichiq obraziga bog`liq obraz bu Cho`pon obrazi bo`lib, "The Shepherd" she`rida Cho`pon – donishmand, mehribon rahbar, qo`ylar – itoatkor va beg'ubor mavjudotlar, tong va kech esa hayotning turli bosqichlarini ifodalaydi. Quyidagi she`rdan parchada bu yaqqol anglash mumkin:

Qanday shirin cho'ponning baxti,

Tongdan to kechgacha kezadi.

U kun bo'yi qo'ylarini ergashtirar,

Va tilidan shukrona tushmas.

Bunda she`rning asosiy g'oyasi inson va tabiat o`rtasidagi uyg'unlik, tinchlik va ilohiy himoya haqida. Diniy nuqtai nazardan, she`r Masih va mo`minlar o`rtasidagi munosabatni ham ifodalashi mumkin [6].

Ham tasavvuf ham mistik adabiyotning eng ma`noga boy ramziy obrazlaridan biri – "Gul" obrazi bo`lib, ular turli kontekstlarda turli ma`nolarda kelsada, har ikki adabiyotda o`xshash ramziy ma`no tashishi bilan alohida o`rinda turadi. Uilyam Bleykning "The Blossom" ("Gul") she`ri tabiat, beg'uborlik, sevgi va hayotning turli tajribalari mavzularini yoritadi. She`rda ikki xil qush—chumchuq (Sparrow) va qizilqarg'a (Robin) hamda gulning obrazlari orqali hayotning quvonchli va qayg'uli tomonlari aks ettiriladi.

"The Blossom" she`ri hayotning ikki tomonini ko`rsatadi: chumchuq – quvonch, yoshlik va energiya, qizilqarg'a esa – qayg'u, hayotning og'ir tomonlari.

Merry merry sparrow

Under leaves so green,

A happy blossom

Sees you, swift as arrow,

Seek your cradle narrow

Near my bosom.

Tarjimasi

Quvnoq, quvnoq chumchuq,

Yashil barglar ostida,

Baxtli bir gul

Seni ko'radi, o'qdek shiddat bilan,

Tor beshiging sari

Intilar tinmasdan ko'ksim sari.

Quvnoq chumchuq (erkin hayot) yashil barglar ostida (sokinlikda) baxtli gulni (mehribon va samimiy insonni) ko`radi. Shiddatli xarakter qilib tinchlik hukmronlik qilgan joyga intiladi. Bu she`r o`zida tabiat va insoniy iliqlikning uyg'unligini aks ettiradi. Chumchuqning harakati va uning beshik sari intilishi ona mehriga intilayotgan bola yoki seviklisiga intilayotgan inson ramzi bo'lishi mumkin. Tabiat va inson qalbi

o'rtasidagi bog'liqlik shu yo'l bilan ifodalangan. "Gul" obrazi orqali shoir "mehribon insonni" ta'riflaydi.

"Ma'sumlik qo'shiqlari" da eng mashhur she'r "The Lamb" va undagi eng yorqin obraz qo'zichoq obrazi bo'lganidek, "Tajriba qo'shiqlari" ning markazi obrazi "Tyger" she'ridagi yo'lbars obrazidir [4]. Biroq yo'lbars obrazi faqat "Tyger" she'rinda emas, boshqa namziy parchalarda ham bir necha marta ishlatilgan va har biri alohida ramziy ma'nolarni ifodalaydi.

*Tiger, tiger burning bright
In the forests of the night,
What immortal hand or eye
Could frame thy fearful symmetry?*

Bu she'r to'vusday chiroyli, lekin qo'rqinchli mavjudot – yo'lbars haqida. She'rning asosiy savoli: *kim shunday mukammal, lekin xavfli jonzotni yaratdi?*

"Tiger, tiger burning bright"- Yo'lbarsning ranglari va o'tkir nigohi yaltirab yonayotganga o'xshaydi. Bu unga qudrat va ilohiy joziba beradi. "In the forests of the night"- Tun sirli va noma'lum kuchlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yo'lbars faqat jismonan emas, balki ruhan ham kuchli, sirli va xavfli timsolga aylanadi. "What immortal hand or eye" - Bu misra yo'lbarsni kim yaratganini so'raydi. "O'lmas qo'l yoki ko'z" degan ibora Xudo, taqdir yoki ilohiy kuchlarni anglatishi mumkin. "Could frame thy fearful symmetry?" Qo'rqinchli uyg'unlik tushunchasi yo'lbarsning go'zalligi va xavfini birlashtiradi. U san'at asari kabi mukammal, lekin o'ta haybatli va dahshatli mavjudot. Bleyk bu misra orqali tabiatdagi go'zallik va vahshiylikning uyg'unligini aks ettirgan.

Keyinchalik "Fearful Symmetry" iborasi boshqa asarlarda ham ishlatilgan, masalan, Nortrop Fray 1947-yilda Bleykning ijodi haqida *"Fearful Symmetry: A Study of William Blake"* nomli kitob yozgan. Fray *"The Tyger"* she'rini Bleykning dualistik dunyoqarashi bilan bog'laydi va undagi yo'lbars obrazini bir nechta nuqtai nazardan tahlil qiladi [2]. Bunda yo'lbars Xudoning inqilobiy yaratuvchilik kuchi bo'lib, dunyoda faqat go'zallik emas, balki halokat va o'zgarishlar ham mavjud ekanini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, "Ma'sumlik va Tajriba qo'shiqlari" Bleykning eng mashhur asarlaridan biri bo'lib, undagi obrazlar inson ruhiyati va jamiyatlardagi qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. Bu asardagi obrazlar, xususan, qo'zichoq, bolalar va bog'bon, inson tabiatining sof va ezgu tomonlarini ramziy ifodalab, yo'lbars, yetim bolalar va zulmkor ruhoniylar kabi obrazlar orqali insoniyatning murakkab haqiqatlarini yoritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M. Mahmudova. Jahon adabiyoti. Buzoro. 2024.
2. Northrop Frye. Fearful Symmetry. Princeton university Press. 1947. 354- bet.
3. U. Hamdamov. A. Qosimov. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2017.
4. V. Serdechnaya. Uilyam Bleyk sovet qabulida: "Inqilobiy romantik" obrazining shakllanishi. Perm universiteti axborotnomasi: rus va xorijiy filologiya. 12-tom, 4-son. 2020.
5. XU Jian-gang, Imagination and Emotion in William Blake's Poems. Journal of Literature and Art Studies, January 2016.
6. Yasser. K. Aman. Uilyam Bleykning The Tyger va U.B. Yeytsning The Second Coming asarlarida Mahshariy Hayvon obrazi. Tanqidiy tadqiqotlar. 2021.

7. Yiling Wang. Uilyam Bleyk she'riyatida ijtimoiy haqiqatning ochilishi. BCP ta`lim va Psixologiya. 7- son.

